



YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLAR VA O'ZINI O'ZI BAND QILGAN SHAXSLARNI SOLIQA TORTISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

Navro'zova Farog'atxon Abduxamid qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0007-0985-7990

navruzova777@umail.uz

Annotatsiya. Maqolada yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslar yoritib berilgan. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish budjetlar daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini oshirish yuzasidan tartib va amaliy tavsiyalar taklif etildi. Bundan tashqari, Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortishning amaldagi holati bo'yicha tadqiqot olib borilgan bo'lib, mavzu doirasida iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari o'rganilib, xulosa va takliflar shakllantirildi.

Kalit so'zlar: jismoniy shaxslar daromad solig'i, yer solig'i, ko'chmas mulk, mahalliy budjet, mahalliy budjet daromadlari, mahalliy hokimiyat organlari, mahalliy soliqlar, soliq, soliq stavkasi, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari.

АНАЛИЗ СОВРЕМЕННОГО СОСТОЯНИЯ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ И САМОЗАНЯТЫХ ЛИЦ

Наврозова Фарогатхан Абдухамид кизи

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье описаны индивидуальные предприниматели и самозанятые граждане. Предложены методические и практические рекомендации по повышению значения налогообложения доходов физических лиц в формировании доходов бюджета. Кроме того, в рамках темы проведено исследование современного состояния налогообложения индивидуальных предпринимателей и самозанятых лиц, изучены исследования экономистов, сформированы выводы и предложения.

Ключевые слова: подоходный налог с населения, земельный налог, недвижимость, местный бюджет, доходы местного бюджета, органы местного самоуправления, местные налоги, налог, налоговая ставка, налоговая отчетность, налоговые поступления, налоговые льготы.

ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF TAXATION OF INDIVIDUAL ENTREPRENEURS AND SELF-EMPLOYED PERSONS

Navrozova Farogatxon Abduxamid qizi

Tashkent State University of Economics

Abstract. The article describes individual entrepreneurs and self-employed individuals. Procedural and practical recommendations were offered to increase the importance of taxation of individual incomes in the formation of budget revenues. In addition, a study was conducted on the current state of taxation of individual entrepreneurs and self-employed persons, studies of economists were studied within the scope of the topic, and conclusions and proposals were formed.

Keywords: personal income tax, land tax, real estate, local budget, local budget revenues, local authorities, local taxes, tax, tax rate, tax reporting, tax revenues, tax benefits.

Kirish.

Jahon mamlakatlarida milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi asosiy omillaridan biri sifatida turli darajadagi davlat budjeti moliyaviy barqarorligini ta'minlashning ahamiyati ortib bormoqda. "Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda davlat budjeti daromad manbalari sifatida jismoniy shaxslarning daromadlari va ko'chmas mulklari uchun to'lanadigan soliqlar hisoblanadi. Jumladan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining budjet daromadlari tarkibidagi ulushi AQShda 35,9 foiz, Germaniyada 35,1 foiz, Rossiya Federatsiyasida 30,4 foiz, Buyuk Britaniyada 25,8 foiz, Xitoyda 6,9 foizni tashkil etmoqda. ... Mahalliy budjet daromadlari tarkibida jismoniy shaxslar ko'chmas mulk solig'ining ulushi Kanadada 40,1 foiz, Fransiyada 40,0 foiz, Buyuk Britaniyada 30,0 foiz, AQShda 19,6 foiz, Rossiya Federatsiyasida 9,0 foizni tashkil etgan". Budjet daromadlari tarkibida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hamda ko'chmas mulk solig'ining barqarorligi, yig'iluvchanligi va mahalliy budjetga undirilishini tartibga solish orqali iqtisodiyot rivojlanishiga ta'sirini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Hozirgi davrda soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida budjet daromadlarini oshirish, soliqqa tortish ma'muriyatchiligini takomillashtirish orqali mahalliy budjet daromadlari bazasini kengaytirish, soliqlarni unifikatsiya qilish qaraladi.

Klassik iqtisodchilardan Rikardo (1955) soliqlar borasidagi fikrini "...soliqlar unumsiz tuproq, yomon ob-havo, faollik yoki uddaburonlik yetishmasligi, ishchi o'rinlarining noto'g'ri taqsimoti kabilar bilan bir xil ta'sir kuchiga ega...", deb ifoda etadi. Bundan Rikardo (1955) ta'limotida "ham davlat xizmatlari A.Smitda bo'lgani kabi "unumsiz mehnat"ga kiritilganligi va "unumli mehnat"ga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri sanalganligini ko'rishimiz mumkin".

Vlasovaning (2015) fikriga ko'ra "Mahalliy budjetlarning daromadli salohiyati davlat-xususiy sheriklikni yanada faolroq amalga oshirishni, soliq imtiyozlarini joriy etish va byurokratik jarayonlarni tezlashtirish va soddalashtirish orqali biznes yuritishni iloji boricha osonlashtirishni, noishlab chiqarish xarajatlari ulushini kamaytirishni va ishlab chiqarish xarajatlarini ko'paytirishni talab qiladi. Natijada mintaqadagi budjet siyosati samaradorligining oshishiga olib keladi. Mahalliy budjetlarning daromad salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks qaror uzoq muddatli istiqbolda butun mintaqada iqtisodiyoti uchun kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi".

Seleznev, Dotsenkolarning (2016) fikriga ko'ra "mahalliy budjetlarning real moliyalashtirish taqchilligi muammosi bilan bog'liq holda mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirish tizimi - muhim makroiqtisodiy vazifa", deb hisoblaydilar. Morozova (2009) o'z tadqiqoti natijalariga ko'ra "jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlarini keltirib, ularni mamlakat qonunchiligidan kelib chiqib quyidagi guruhlarga bo'ladi":

- asosiy ish joyidan olingan daromadlarni soliqqa tortish;
- boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlardan olinadigan daromadlarni soliqqa tortish;
- tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlarni soliqqa tortish;
- mamlakatda doimiy yashamaydigan shaxslar daromadlarini soliqqa tortish.

Mualliflar jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishda soliq bazasini aniqlashda imtiyozlarning ahamiyatiga to'xtalib, soliq solinadigan bazani aniqlashda soliq chegirmalari hisobga olinishini ta'kidlaydi. Bunday soliq chegirmalarini standart, ijtimoiy, mulkiy, kasbiy chegirmalar sifatida e'tirof etadi. Bunday chegirmalar faqatgina asosiy stavkada soliqqa tortiladigan daromadlarga tegishli bo'lishligini ta'kidlaydi.

Muallif tomonidan Rossiya Federatsiyasida oilaviy soliqqa tortish masalasi ham tahlil qilingan. Bundan tashqari muallif o'z tadqiqotlarida yashash va kommunal to'lovlarni to'lash xarajatlari, jismoniy shaxslarning real daromadlariga bevosita ta'sir etmasligi lozimligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tahlil jarayonida ma'lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortishning amaldagi holati tahlili takomillashtirish yo'llarini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, aholi daromadining yillar davomida ortib borishi bilan bir qatorda bozorda iste'mol tovarlarining narxi nazorat qilinishi ularning farovon hayot kechirishlari uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Jamiyatda yashayotgan har bir shaxs mehnat qilish va shu qilingan mehnati evaziga ma'lum daromad olish huquqiga ega. Zero, mamlakatimiz Prezidenti, "Samarali mehnat uchun zarur shart-sharoitlar, munosib ish haqi, zamonaviy uy-joylar, sifatli ta'lim va tibbiy yordam, dam olish va hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish – bularning barchasi iqtisodiy sohadagi islohotlarimiz mohiyati va mazmunini belgilab beradigan muhim omillardir. Shu borada nafaqat eng kam oylik ish haqini, balki budjet tashkilotlarida ham, xo'jalik yurituvchi subyektlarda ham o'rtacha ish haqi miqdorini, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini bosqichma-bosqich ko'paytirish e'tiborimiz markazida bo'ladi" (Mirziyoyev, 2017) - deya ta'kidlab o'tdilar. Darhaqiqat, aholining munosib turmush darajasini ta'minlash uchun xodimga munosib haq to'lanishi lozim. Ish vaqtidan tashqaridabajariladigan ishlar, qo'shimcha ishlar uchun ham rag'bat va iqtisodiy-moddiy ta'minot berilishi ish sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish va biznesni yuritish uchun qulay muhit yaratish, tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yildagi PF-5270-sonli Farmoniga asosan, 2018-yil 1-yanvardan boshlab faoliyat ko'rsatish turi va uni amalga oshirish joyidan qat'iy nazar I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxs hisoblangan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun bir oyda bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida qat'iy belgilangan soliq stavkasi qo'llanilishi belgilangan" (Farmon, 2017). Vaholanki, qonunchilikka muvofiq maishiy xizmatlar va boshqa ayrim faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar 50 000 so'm, ya'ni bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizidan kam soliq stavkasi qo'llanilishi belgilanganligi mantiqan salbiy holat hisoblanadi. Fikrimizcha ushbu me'yorni I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxs hisoblangan yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyat turiga va faoliyat joyiga nisbatan qo'llaniladigan soliq stavkasining 50 foizi miqdorida qat'iy belgilangan soliq to'lashi tarzida o'zgartirish ijobiy hisoblanadi. Shu bilan birgalikda mazkur hujjatga asosan, yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar hisobidan ishga yollangan har bir ishchi uchun — bir oyda eng kam ish haqining 15 foizi miqdorida qat'iy belgilangan soliq stavkasi qo'llanilishi belgilangan. Vaholanki, bugungi kunda Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi PQ-3856-son qarorining 7-bandi, 2-xatboshiga muvofiq 2018-yil 1-avgustdan boshlab YaTTlar tomonidan yollangan ishchilar qat'iy belgilangan soliqni to'lashdan ozod qilingan. Demak, yuqoridagi holatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-sonli Farmoniga tegishli o'zgartirish kiritish, ya'ni Soliq kodeksi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi PQ-3856-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-noyabrda 707-sonli qarorlari bilan muvofiqashtirish lozimligini taqozo etadi. Ma'lumki, hunarmandchilik faoliyati – mamlakat aholisining boy madaniy merosi va tarixiy an'alarini to'liq saqlab qolish va ko'paytirish, milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini yanada rivojlantirish, hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolarni har tomonlama ko'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shu asosda hunarmandchilik aholi, ayniqsa yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalar bandligini ta'minlash bo'yicha asosiy dastak sifatida ijobiy natija ko'rsatadi. Mamlakatimizda hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama ko'llab-quvvatlash maqsadida "Hunarmand" uyushmasiga

a'zo hunarmandlarga kasb-hunar kollejlarning maxsus ustaxonalarida hunarmandchilik bo'yicha ta'lim berishda yakka tartibdagi tadbirkorlar kabi shartnoma tuzish va ko'rsatilgan xizmat uchun soliq to'lamaslik huquqi berildi (Farmon, 2017).

1-jadval

Hududlar kesimida hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar soni va ular tomonidan to'langan ijtimoiy soliq (yagona ijtimoiy to'lov) miqdori tahlili (mln.so'm)

№	Hududlar	2018 yil		2019-yil		2020-yil		2021 yil		2022-yil	
		Soni	To'langan ijtimoiy soliq	Soni	To'langan ijtimoiy soliq	Soni	To'langan ijtimoiy soliq	Soni	To'langan ijtimoiy soliq	Soni	To'langan ijtimoiy soliq
1	Qoraqalpog'iston Res.	1 567	3 238,6	1 501	3 651,8	1 567	3 238,6	1 501	3 651,8	1428	5 112,52
2	Andijon viloyati	3 499	7 232,0	3 055	7 433,1	3 499	7 232,0	3 055	7 433,1	2502	10 406,34
3	Buxoro viloyati	3 148	6 506,5	2 775	6 750,4	3 148	6 506,5	2 775	6 750,4	2171	9 450,56
4	Jizzax viloyati	1 395	2 884,1	1 189	2 891,3	1 395	2 884,1	1 189	2 891,3	1319	4 047,82
5	Qashqadaryo viloyati	2 553	5 276,3	2 405	5 850,5	2 553	5 276,3	2 405	5 850,5	2464	8 190,7
6	Navoiy viloyati	1 284	2 652,8	852	2 073,0	1 284	2 652,8	852	2 073,0	1050	2 902,2
7	Namangan viloyati	2 869	5 928,8	2 651	6 448,5	2 869	5 928,8	2 651	6 448,5	3220	9 027,9
8	Samarqand viloyati	3 897	8 054,4	2 918	7 098,1	3 897	8 054,4	2 918	7 098,1	5128	9 937,34
9	Surxondaryo viloyati	2 122	4 386,3	1 752	4 262,4	2 122	4 386,3	1 752	4 262,4	1823	5 967,36
10	Sirdaryo viloyati	823	1 701,2	795	1 934,0	823	1 701,2	795	1 934,0	858	2 707,6
11	Toshkent viloyati	3 224	6 662,8	2 885	7 018,3	3 224	6 662,8	2 885	7 018,3	3053	9 825,62
12	Farg'ona viloyati	4 238	8 759,6	3 605	8 770,6	4 238	8 759,6	3 605	8 770,6	4796	12 278,84
13	Xorazm viloyati	2 180	4 506,4	2 055	4 999,8	2 180	4 506,4	2 055	4 999,8	2551	6 999,72
14	Toshkent shahri	3 214	6 643,0	3 146	7 654,4	3 214	6 643,0	3 146	7 654,4	4211	10 716,16
	JAMI	36 012	74 433,1	31 584	76 836,3	36 012	74 433,1	31 584	76 836,3	36 575	107 570,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Shu bilan birgalikda "Usta-shogird" maktabi o'quvchisi sifatidagi ish davri 25 yoshga yetgunga qadar bazaviy hisoblash miqdorining kamida 2,5 barobari miqdorida sug'urta to'lovi (ijtimoiy soliq) to'langan taqdirda mehnat stajiga qo'shiladi. Bugungi kunda "Hunarmand" uyushmasi a'zolari soni 35 269 kishini tashkil etadi. Hunarmandchilik bilan shug'ullanayotgan ayollar soni 13 316 yoki 37%ni va 30 yoshgacha bo'lgan yosh hunarmandlar soni 9 978 yoki 30% ni tashkil etadi. Hududlar kesimida hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi YaTTLar soni va ular tomonidan to'langan ijtimoiy soliq miqdorlarini tahlili 1-jadval jadvalda aks etgan.


Bundan tashqari yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar soni muntazam ravishda o'sish tendensiyasiga ega. Ushbu ko'rsatkichlar tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan hunarmandlar soni 2018-yilda 36012 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda esa 36 575tadan iborat bo'lgan, ya'ni so'nggi 5 yilda deyarli 1.01 barobarga ortish tendensiyasiga ega. Hududlar miqyosida e'tibor qaratsak, hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar soni Sirdaryo, Navoiy va Jizzax viloyatlarida boshqa hududlarga nisbatan kamroq ko'rsatkichga ega. Respublika miqyosida hunarmandchilik faoliyati bo'yicha 2022-yilning yakuniga ko'ra Toshkent shahrini o'rnak sifatida qabul qilish mumkin.

Tahliliy ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, hunarmand yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'langan ijtimoiy soliq (yagona ijtimoiy to'lov) har yilning boshidagi bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlangan. Ya'ni 2018-yil yanvar oyida bazaviy hisoblash miqdori (eng kam ish haqi) 184300 so'mni tashkil etib, shu yildagi 36012 ta tadbirkorlik subyektlari tomonidan 74433,1 mln.so'm ijtimoiy soliq undirilishiga to'g'ri kelgan.

2022-yil yakuniga ko'ra 36 575 ta hunarmandlarga nisbatan 107 570,9 mln.so'm ijtimoiy soliq hisoblangan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar tomonidan belgilangan miqdorda to'langan ijtimoiy soliq summolari asosida ularning mehnat staji hisobga olinadi.

Mamlakatimizda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirishda soliq va boshqa majburiy to'lovlardan qo'llaniladigan imtiyoz va yengilliklar muhim o'rin egallaydi (1-rasm).



1-rasm. Hududlar kesimida hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qo'llanilgan soliq imtiyozlari (mln.so'm)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2023-yil 1-yanvarga qadar kalendar yili davomida hunarmandchilik mahsulotlarini (ishlar, xizmatlar) sotishdan tushgan tushumi 100 mln so'mdan oshgan, biroq 1 mlrd so'mdan ko'p bo'lmagan miqdori uchun yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 2 foiz miqdorida to'lanadi.

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, qat'iy belgilangan daromad solig'idan imtiyoz qo'llanishi natijasida hunarmandlar ixtiyorida tejalib qolgan summalar ularning soniga nisbatan to'g'ri proporsional ravishda muntazam ortish ko'rsatkichiga ega. Faqatgina, 2018-yilda soliqdan imtiyoz summasida keskin kamayish kuzatilgan. Ya'ni, Respublika miqyosida soliq imtiyozlaridan foydalanuvchi hunarmandlar tomonidan 2018-yilda 321 281,9 mln. so'm, 2019-yilda 402 869,7 mln. so'm, 2020-yilda 518 198,8 mln. so'm, 2021-yilda 528 562,9 mln. so'm hamda 2022-yilda 570 847,8 mln. so'mni tashkil etgan.

Hunarmandchilik subyektlariga nisbatan qo'llanilgan soliq imtiyozi summasining 2018-yildan boshlab oshishi sabablariga to'xtaladigan bo'lsak, 2017-yilning noyabr oyida mamlakatimizda hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni (Farmon, 2017) qabul qilinib, ushbu hujjatga asosan 2017-yilning 1-dekabridan boshlab hunarmandchilik subyektlari — "Hunarmand" uyushmasining a'zolari hunarmandchilik mahsulotlarini (tovarlarini, xizmatlarini) ishlab chiqarish hamda realizatsiya qilishni amalga oshirganida

qat'iy belgilangan miqdordagi soliqni to'lashdan ozod etildi. Ma'lumot o'rnida quyidagilarni eslab o'tish joizki, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda qaroriga (Qaror, 2016) muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan ro'yxat bo'yicha hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qat'iy belgilangan soliq bo'yicha qo'llanilib kelingan imtiyozlar to'xtatilib, 2017-yildan bazaviy hisoblash miqdori (eng kam ish haqi)ning 0,5 baravari miqdorida qat'iy belgilangan soliq stavkasi belgilanganligi va bunday o'zgarishlar mamlakat miqyosida xalq badiiy hunarmandchiligi sohasi vakillarining faoliyati rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi hamda ayrim e'tirozli holatlar kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanayotgan YaTTlar sonining ko'payishini mazkur faoliyat bilan shug'ullanayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan imtiyoz va qulayliklar bilan bog'lash mumkin. Bugungi kunda mamlakatimizda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini rivojlantirish borasida yaratilayotgan imkoniyatlar natijasida hunarmandchilik faoliyati kundan kunga rivojlanib bormoqda. Bu albatta mamlakatimizda hunarmand tadbirkorlarimiz rivojiga alohida e'tibor qaratilishi hamda ularni soliqlar vositasida rag'batlantirish samarasidir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarga nisbatan qat'iy belgilangan daromad solig'i bo'yicha qo'llaniladigan imtiyozlar hududlarning infratuzilmasi hamda ularning faoliyat turlariga qo'llanilgan stavkalariga qarab har xil ulushga ega bo'ladi.

Qat'iy belgilangan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar 1-rasm ma'lumotlariga asosan har bir hunarmand uchun quyidagi ulushlarni tashkil etgan:

- Toshkent shahrida har bir hunarmandga nisbatan yiliga o'rtacha 9,0 mln. so'm;
- boshqa hududlarda 6,0 mln. so'm.

Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining muhim va zamonaviy yo'nalishlaridan biri bu fuqarolarning o'zini o'zi band qilish asosida davlat ro'yxatidan o'tib faoliyat olib borishi hisoblanadi. Fuqarolarning o'zini o'zi band qilishi ularning bandligini ta'minlaydi, moliyaviy mustaqilligini yaxshilaydi hamda kelgusi davrda mehnat munosabatlarida to'laqonli huquqlarga ega bo'lib, faoliyat davri uchun pensiya tayinlanishida inobatga olinadi.

Aholini tadbirkorlik faoliyatiga yanada keng jalb qilish va qonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlarni yaratish maqsadida o'zini o'zi band qilishi bo'yicha qonunchilikka (Qaror, 2020) asosan faoliyat turlari belgilangan. O'zini o'zi band qiluvchi faoliyatlarni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha taqsimlab tadqiq etish mumkin.

Ijtimoiy yo'nalishdagilarga - uyda repetitorlik qilish, bolalarga enagalik va ularni parvarish qilish, uy xo'jaligini yuritish, xonalarni tozalash, xalq tabobati, hamshiralik ishi kabi faoliyat turlarini kiritish mumkin.

Sanoat yo'nalishiga - yog'och me'morchiligi, santexnika xizmati, elektr montaj ishlari, makulatura, plastik idish, temir-tersak to'plash va qo'shimcha xomashyo to'plash kabi faoliyat turlarini kiritish mumkin.

Qishloq xo'jaligi yo'nalishiga - chorva mollarini boqish, ularni parvarish qilish, qishloq xo'jalik o'simliklarini ekish va parvarish qilishda tomorqa egalariga yordam berish kabi faoliyat turlarini kiritish mumkin.

Iste'mol mollari ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish yo'nalishiga - non, uyda pop-korn, muzqaymoq, salatlar, salqin ichimliklar, ayron, go'ja hamda dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish kabi faoliyat turlarini kiritish mumkin.

Respublika bo'yicha o'zini o'zi band qilgan fuqarolar va ularning tarkibiy qismlari to'g'risida tahliliy ma'lumot quyidagi jadval ma'lumotida keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

**Respublika bo'yicha o'zini o'zi band qilgan fuqarolar to'g'risida tahliliy ma'lumot
(2023-yil 1-yanvar holatiga)**

№	Hududlar nomi	Jami hisobga olingan fuqarolar soni	Shundan, joriy yilda hisobga olingan fuqarolar soni		Jumladan:					
			soni	%	Ijtimoiy yo'nalishlar bo'yicha xizmatlar	Sanoat yo'nalishi bo'yicha xizmatlar	Qishloq xo'jaligi yo'nalishi bo'yicha xizmatlar	Axborot kommunikatsiya yo'nalishi bo'yicha xizmatlar	Maishiy xizmatlar	Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish
Respublika jami:		1 604 825	1 137 463	70,9	165 046	141 586	417 372	26 548	322 583	64 328
1	Qoraqalpog'iston R.	61 643	47 906	77,7	4 946	3 741	18 875	1266	14 642	4 436
2	Andijon viloyati	121 777	77 464	63,6	4 759	13 104	35 600	899	20 017	3 085
3	Buxoro viloyati	101 571	67 749	66,7	5 912	5 104	32 262	1015	20 812	2644
4	Jizzax viloyati	93 992	77 809	82,8	13 692	6 358	33 679	1495	19 523	3 062
5	Qashqadaryo viloyati	133 845	105 368	78,7	20 185	10 533	39 697	1732	28 559	4 662
6	Navoiy viloyati	68 045	50 960	74,9	5 022	3 582	21 242	1095	17 829	2 190
7	Namangan viloyati	123 245	91 975	74,6	13 980	12 715	37 629	1246	21 616	4 789
8	Samarqand viloyati	237 404	172 766	72,8	34 950	23 713	39 944	2528	59 448	12 183
9	Surxondaryo viloyati	106 989	81 901	76,6	13 177	6 578	35 225	1552	21 732	3 637
10	Sirdaryo viloyati	45 363	37 711	83,1	2 883	3328	17 643	594	10 796	2467
11	Toshkent viloyati	112 511	72 714	64,6	9 549	6 002	35 192	1870	16 342	3 759
12	Farg'ona viloyati	150 124	99 420	66,2	8 737	25 648	35 069	1620	22 578	5 768
13	Xorazm viloyati	83 377	62 258	74,7	5 272	5 461	33 181	1229	14 301	2 814
14	Toshkent shahri	164 939	91 462	55,5	21 982	15 719	2134	8 407	34 388	8 832

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Yuqoridagi 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, respublika miqyosida 2023-yil 1-yanvar holatiga 1 604 825 nafar fuqarolar o'zini o'zi band qiluvchi sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan. Joriy yil davomida respublika miqyosida 1 137 463 nafar fuqarolar o'zini o'zi band qiluvchi sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lib, ularning aksariyat qismi, ya'ni 417 372 (26 foiz) nafari qishloq xo'jaligi yo'nalishidagilar hamda 322 583 (20 foiz) nafari maishiy xizmatlarga to'g'ri kelmoqda. Eng kam ko'rsatkich axborot-kommunikatsiya yo'nalishiga, ya'ni umumiy raqamlarga nisbatan atigi 2 foizga to'g'ri keladi. Demak mamlakatimizda ushbu soha vakillarini yanada rag'batlantirish hamda yengilliklar berish va buning natijasida ushbu sohaga tegishli faoliyat bilan shug'ullanuvchilarning sonini oshirish lozim bo'ladi.

Tahliliy ma'lumotlarni viloyatlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng peshqadam hudud aholi soni nisbatan ko'p bo'lgan Samarqand va Farg'ona viloyatlariga to'g'ri kelib, bu ko'rsatkich Samarqand viloyatida 182 176 nafar (23 foiz), Farg'ona viloyatida 132 624 nafar (26,1 foiz)ni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-sentyabrdagi O'RQ-714-son qonuniga (Qonun, 2021) asosan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga tegishli qo'shimchalar kiritilib, O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari belgilab berildi. Bunda soliq solishning alohida tartibiga ega O'zbekiston Respublikasining alohida hududlari sifatida Farg'ona viloyatining So'x tumani, Rishton tumanining Cho'ng'ara mahallasi, shuningdek Farg'ona tumanining Shohimardon, Yordon mahallalari va Hosilot mahallasining Toshtepa - 2 ko'chasi e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan soliq to'lovchilar uchun qat'iy belgilangan miqdorlardagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i har chorakda **yigirma besh ming** so'm miqdorida to'lanadi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun — **yiliga** bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari miqdorida ijtimoiy soliq to'lashi lozimligini alohida ta'kidlash lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilarni taklif qilamiz:

Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish borasida ko'pgina ijobiy islohotlar amalga oshirilishi bilan bir qatorda ushbu sohada e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan quyidagi holatlarni kuzatishimiz mumkin:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-sonli Farmonining 7-bandiga asosan, 2018-yil 1-yanvardan boshlab faoliyat ko'rsatish turi va uni amalga oshirish joyidan qat'i nazar I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxs hisoblangan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun bir oyda bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida qat'iy belgilangan soliq stavkasi qo'llanilishi belgilangan. Vaholanki, qonunchilikka muvofiq maishiy xizmatlar va boshqa ayrim faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar 50 000 so'm, ya'ni eng kam ish haqining 50 foizidan kam soliq stavkasi qo'llanilishi belgilanganligi mantiqan salbiy holat hisoblanadi. Fikrimizcha ushbu me'yorni I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxs hisoblangan yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyat turiga va faoliyat joyiga nisbatan qo'llaniladigan soliq stavkasining 50 foizi miqdorida qat'iy belgilangan soliq to'lashi tarzida o'zgartirish ijobiy hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda mazkur hujjatga asosan, yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar hisobidan ishga yollangan har bir ishchi uchun — bir oyda eng kam ish haqining 15 foizi miqdorida qat'iy belgilangan soliq stavkasi qo'llanilishi belgilangan. Vaholanki, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi PQ-3856-son qarorining 7-bandi 2-xatboshiga muvofiq 2018-yil 1-avgustdan boshlab yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan yollangan barcha ishchi qat'iy belgilangan soliqni to'lashdan ozod qilingan. Demak, yuqoridagi holatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-sonli Farmonining 7-bandiga tegishli o'zgartirish kiritish lozimligini taqozo etadi.

Ikkinchidan, amaldagi qonunchilikka, ya'ni O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrda O'RQ-589-son Qonuni 13-ilovasida keltirilgan soliq stavkalariga izohlar qismida belgilangan me'yorlarga ko'ra, yakka tartibdagi tadbirkor faoliyatini amalga oshiradigan joy uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalardan farq qilsa, qat'iy belgilangan soliq eng yuqori stavka bo'yicha to'lanadi. Misol uchun, yakka tartibdagi tadbirkor Qashqadaryo viloyatida davlat ro'yxatidan o'tib Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatsa Toshkent shahrida qo'llaniladigan soliq stavkasi bo'yicha, aksincha Toshkent shahrida davlat ro'yxatidan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkor Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirsa ham Toshkent shahrida qo'llaniladigan soliq stavkasi qo'llaniladi. Fikrimizcha ushbu holatda viloyatlardan Toshkent shahriga kelib faoliyat ko'rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkorga Toshkent shahrining soliq stavkasi qo'llanilishi adolatli, lekin teskari holatda Toshkent shahridan viloyatlarga borib tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorga Toshkent shahrida qo'llaniladigan soliq stavkasi tatbiq qilinishi adolatlilik prinsipiga mos kelmaydi.

Ushbu holatga yakka tartibdagi tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida, soliq qonunchiligiga yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan qat'iy belgilangan soliqni faoliyat amalga oshirilgan joy uchun belgilangan stavkalari bo'yicha to'lash tartibini qo'llashga qaratilgan tegishli o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar/ Jumezamypa/ Reference:

Farmon (2017) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-sonli Farmonining 7-bandi.

Farmon (2017) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrda PF-5242-son Farmoni

Mirziyoyev Sh.M. (2017) "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, – 592 b.

*O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
Qaror (2016) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdagi PQ-2699-son qarori.*

Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4742-son qarori.

Qonun (2021) O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'RQ-714-son qonuni.

Власова Ю.А., Абрамова А.И. (2015) Проблемы укрепления доходного потенциала региональных бюджетов в России на примере калужской области//Креативная экономика. Т. 9. № 10. С. 1255-1276.

Морозова Г.В. (2009) "Развитие системы налогообложения доходов физических лиц". Автореферат дисс. Москва. 4-с.

Морозова Г.В., Дерина О.В. () "Сравнительный анализ становления и развития системы налогообложения доходов физических лиц в РФ и зарубежных странах". УДК 336.221.225.

Рикардо Д. (1955) Сочинения. Т1. Начало политэкономии и налогового обложения. Пер. с англ. -М.: Госполитиздат. - 186 с.

Селезнев А., Доценко Н. (2016) Доходный потенциал местных бюджетов и его общегосударственное значение // Экономист. № 9. - С. 12-22.